



THE JADID MOVEMENT AND SAID RIZO ALIZODA: SOURCES OF NATIONAL AWAKENING AND SPIRITUAL RENEWAL

Ulug'bek Yusupboyevich Nazarov

Independent researcher at Samarkand State Institute of Foreign Languages

E-mail: unazarov@mail.ru

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Said Rizo Alizoda, enlightenment, Jadidism, new method schools, science, education, patriotism, national self-awareness, free thinking, Eastern and Western culture, translation, pedagogical activity.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: This article presents a comprehensive scientific and philosophical analysis of the main ideas of the Jadid movement and the educational activities carried out by its representatives. In particular, the article aims to deeply analyze the place and role of Jadidism ideas in the processes of spiritual uplift and social awakening, demonstrating their interconnection across historical periods.

The article examines the socio-political and cultural environment that influenced the formation of Said Rizo Alizoda's worldview, the ideological struggle during the period of his activity, and his initiatives aimed at awakening the nation. The author also evaluates Said Rizo Alizoda's efforts towards freedom, independence, well-being, national development, and the upbringing of a harmoniously developed generation from a contemporary perspective and substantiates their relevance in the present day.

JADIDCHILIK HARAKATI VA SAID RIZO ALIZODA: MILLIY UYG'ONISH VA MA'NAVIY YANGILANISH MANBALARI

Ulug'bek Yusupboyevich Nazarov

Samarqand davlat chettilar instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: unazarov@mail.ru

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Said Rizo Alizoda, ma'rifat, ma'rifatparvarlik, jadidchilik, yangi usul maktablari, ilm, ta'lim, vatanparvarlik, **Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidchilik harakatining asosiy g'oyalari va uning vakillari tomonidan amalga oshirilgan

milliy o‘zlik, erkin tafakkur, Sharq-G‘arb madaniyati, tarjima, pedagogik faoliyat.

ma’rifatparvarlik faoliyati keng ilmiy-falsafiy tahlil etilgan. Xususan, jadidchilik g‘oyalarining davrlararo bog‘liqligini ko‘rsatib, ma’naviy yuksalish va ijtimoiy uyg‘onish jarayonlaridagi o‘rni va rolini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada Said RizoAlizodaning dunyoqarashi shakllanishiga ta’sir etgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhit, u faoliyat yuritgan davrdagi mafkuraviy kurashlar, millatni uyg‘otishga qaratilgan tashabbuslari tahlil qilinadi. Shuningdek, mualif Said Rizo Alizodaning erkinlik, mustaqillik, ozodlik, farovonlik, milliy taraqqiyot va barkamol avlod tarbiyasi yo‘lida ko‘rsatgan sa’y-harakatlarini zamonaviy qarashlar nuqtai nazaridan baholab, ularni hozirgi davr uchun ham dolzarb ahamiyatga ega ekanini asoslaydi.

ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ И САИД РИЗО АЛИЗОДА: ИСТОКИ НАЦИОНАЛЬНОГО ПРОБУЖДЕНИЯ И ДУХОВНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Улугбек Юсупбоевич Назаров

независимый исследователь

Самаркандского государственного института иностранных языков

E-mail: unazarov@mail.ru

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Сайд Ризо Ализода, просвещение, просветительство, джадидизм, новометодные школы, наука, образование, патриотизм, национальное самосознание, свободное мышление, культура Востока и Запада, перевод, педагогическая деятельность.

Аннотация: В данной статье представлен широкий научно-философский анализ основных идей джадидского движения и просветительской деятельности, осуществляемой его представителями. В частности, статья направлена на глубокий анализ места и роли идей джадидизма в процессах духовного подъема и социального пробуждения, демонстрируя их взаимосвязь между историческими периодами.

В статье анализируется социально-политическая и культурная среда, повлиявшая на формирование мировоззрения Саида Ризо Ализды, идеологическая борьба в период его деятельности и его инициативы, направленные на пробуждение нации. Также автор оценивает усилия Саида Ризо Ализды на пути к свободе, независимости, благополучию, нациальному развитию и воспитанию гармонично развитого поколения с точки зрения современных

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot tezkorligi davrida o‘tmish tariximizni yangicha tafakkur, tanqidiy yondashuv va ilmiy-nazariy asosda chuqr o‘rganish — zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, madaniy meros va ma’naviy qadriyatlarni xolisona tahlil qilish, ularni davr talablari ruhida qayta kashf etish va boyitib, yosh avlod ongiga singdirish — bugungi kunning dolzarb maqsadlaridandir.

Yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirishda ajdodlarimizning boy merosi, xususan, jadid bobolarimizning fidokorona faoliyati va ma’rifatparvarlik g‘oyalari beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ularning millat ravnaqi, ilm-ma’rifat targ‘iboti va taraqqiyot sari intilgan kurashchan hayot yo‘li bugungi islohotlarimizning tarixiy ildizlari sifatida muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Biz ajdodlarimizning donishmandlik an’analariga amal qilib, ularning g‘oyalarini anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz” [1]. Ushbu fikr zamirida tarixga hurmat, an’anaga sadoqat, ammo kelajakka ishonchli qadam tashlash g‘oyasi mujassamdir.

Samarqand jadidchilik harakatining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Said Rizo Alizoda o‘z umrini xalqni ilm-ma’rifat nuri bilan yo‘g‘rilgan holda tarbiyalashga, milliy o‘zlikni anglashga chorlashga bag‘ishlagan fidoyi ma’rifatparvar edi. U uchun ma’rifat — jamiyatni zulmatdan nur sari yetaklovchi qudratli vosita, insonni o‘zligini anglashga, tarixiy ildizlariga qaytishga olib boruvchi yo‘l edi. Alizoda xalq qalbiga o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, erkin tafakkur va taraqqiyot g‘oyalarini singdirish orqali jamiyatda uyg‘onish, yangilanish harakatlarini rag‘batlantirishni o‘zining asosiy maqsadi qilib oldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Said Rizo Alizodaning boy ilmiy-ma’rifiy merosi, adabiy va tarjima faoliyati ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtai nazardan o‘rganilgan. Uning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan maqola hamda ilmiy tadqiqotlar son jihatidan ham, mazmunan ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Xususan, Farhod Alizoda, G‘aybulloh as-Salom, Salohiddin Hayitov, Bekmurod Yo‘ldoshev, Saydi Umirov, Farmon Toshev, Ubay Qodir, Sherali Turdiev kabi olimlar Said Rizo Alizodaning hayoti, ilmiy qarashlari va ijtimoiy faoliyatini tahlil qilgan asarlarida chuqr yoritishga harakat qilganlar.

Shuningdek, Solih Qosimov, Begali Qosimov, Naim Karimov, Yusuf Abdullaev, Nazira Abduazizova, Nusrat Rahmat, Ulug‘bek Dolimov, Boybo‘ta Dustqoraev, Halim Sayidov, S.

Odjiev, Muntazama Zokirova, O'ktam Ibragimov, G'affor Mahmudov, Amrullo Ahmedov, G'ulom Ismoilov (shoir), Jumhur Ja'farov (Alizodashunos), Nilufar Nomozova kabi adabiyotshunos va tarixchilarning tadqiqotlari va maqolalarida ham Said Rizo Alizodaga doir muhim ma'lumotlar, iqtiboslar va ilmiy tahlillar uchraydi. Xususan, S. Atabullayev hamda S. Odjievlar tomonidan chop etilgan risolalarda Alizodaning ijodi, ma'rifatparvarlik faoliyati hamda ijtimoiy-falsafiy qarashlari keng qamrovda yoritilgan.

Mazkur tadqiqotlarda mualliflar Alizodaning faqat pedagogik faoliyatigagina emas, balki uning jamiyat taraqqiyotiga bo'lgan qarashlari, axloqiy-ruhiy yondashuvlari, milliy o'zlik va erkinlik haqidagi fikrlarini tahliliy asosda o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar. Bu esa uning merosini zamonaviy nuqtai nazardan qayta tahlil qilish, falsafiy va madaniy kontekstda chuqurroq o'rganish zaruratini yanada ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqot ishining metodologik asosi sifatida tarixiy-falsafiy tahlil, madaniy-g'oyaviy yondashuv, manbaviy asosda o'rganish va qiyosiy-tahliliy usullar tanlandi. Said Rizo Alizoda faoliyati ko'p qirrali bo'lgani sababli, uni faqat bir yo'nalishli uslub bilan tadqiq etish yetarli emas. Shu sabab, bu ishda kompleks, ko'p darajali va ko'p fanli yondashuv asosida ishslashga e'tibor qaratildi. Har bir metod nazariy asoslanib, manbalar bilan mustahkamlandi.

Tahlil va natijalar

Said Rizo Alizoda o'z davrining yetuk ma'rifatparvarlaridan biri sifatida Sharq va G'arb tamaddunlari o'rtasida ilmiy-ma'naviy ko'prik vazifasini bajargan buyuk siymo edi. U o'zining keng dunyoqarashi, chuqur bilimdonligi va ko'p tillilik salohiyati orqali o'zbek hamda tojik tillarini boyitish, xalqlararo madaniy muloqotni rivojlantirish yo'lida ulkan xizmatlar ko'rsatgan.

Alizodaning serqirra tarjima faoliyati nafaqat jahon adabiyoti durdonalarini mahalliy o'quvchilarga yetkazishga, balki Sharqning mumtoz asarlarini rus tiliga tarjima qilish orqali G'arb jamoatchilagini Sharq adabiy-falsafiy merosi bilan tanishtirishga ham qaratilgan edi. U adabiyot, tilshunoslik va madaniyat sohalarida faoliyat yuritar ekan, tarjima ishini oddiy lingvistik jarayon emas, balki madaniyatlararo muloqot, tafakkurlar chorrahasidagi uzviy aloqadorlik sifatida baholagan.

Samarqandlik jurnalist, "Самаркандский Вестник" gazetasi bosh muharriri o'rinosbasari Anastasiya Pavlenko "Sayyid Rizo Alizoda – umumbashariy daho" nomli maqola yozib, uning hayoti va faoliyatini atroflicha bayon qildi. Xususan, u yozadi - 1906 yilda Sayyid Rizo o'z maktabini ochishga qaror qildi. Bu tashabbusni Bog'ishamal mahallasi rahbari Hoji Mo'min Avazmuhammed o'g'li qo'llab-quvvatlab, ma'rifatparvarlik g'oyalariga xayrixohlik bildirib, Mingtut mahallasida birorta ham maktab yo'qligidan shikoyat qildi. Shu maqsadda Hoji Mo'min o'zining bo'lajak "Maktabi Islomiya" qurilishi boshlangan bog'ini taqdim etadi. Mablag'larni

butun dunyo yig‘adi, Alizoda o‘z haqlarining katta qismini maqolalar va qurilishdagi bosmaxonadagi teruvchining maoshidan oladi. Maktab ochilishiga Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zi kelib, globus sovg‘a qilgan.

Said Rizo Alizoda rusiyabzon aholi uchun o‘zbek va tojik tillari kurslarini tashkil qiladi, toki notitul millat vakillari mahalliy xalqning madaniyati va an'analarini yaxshiroq tushuna oladilar. 1923 yilda Sayyid Rizoga “Ma’rifat qahramoni” unvoni beriladi. Ammo bu paytga kelib rahbarlik lavozimlarini egallab olgan kechagi etikdo‘z va oshpazlarning illatlarini, yangi hukumat vakillarining “Burjuaziyani yengdi!” shiori ostida sodir etgan talon-tarojlari va zo‘ravonliklarini ko‘rib, qattiq hafsalasi pir bo‘lgan Alizoda partiyani tark etdi. Oradan 15 yil o‘tib, bu haqda ham, Behbudiyning safdoshi ham bo‘lganligi ham esga tushardi”[2]

Shu bilan birga “Saidrizo Alizoda o‘z davrining peshqadam va taniqli kishilaridan edi. Albatta u ham “so‘zlovchi shaxs” sifatida o‘z davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, hodisalar, voqealar, harakatlarning shunchaki tavsifini ko‘ra bila turib jo‘ngina bir hodisa sifatida qaramaydi, ongli shaxs, lisoniy shaxs sifatida o‘zining jamiyatdagi mavqeyidan kelib chiqib, o‘z pozitsiyasida baholaydi, o‘zining ma’rifiy nutqini baralla ayta oladi. Saidrizo Alizodaning asar va maqolalaridagi so‘zlarida illokutsiya (nutqiy ta’sir) o‘ta kuchli” [3;275] bo‘lganligi keltiradi.

Said Rizo Alizoda nafaqat adabiyot va tarjimashunoslik, balki musiqiy madaniyatni ham chuqr anglagan, uning estetik va tarbiyaviy kuchini yuqori baholagan ziyoli edi. U musiqani xalq ma’naviyatining ajralmas bir bo‘lagi, milliy o‘zlikni ifodalovchi estetik shakl sifatida qabul qilgan. Ayniqsa, u musiqaning inson ruhiyatiga, tafakkuriga va tarbiyasiga ijobiy ta’sirini chuqr anglab, uni ma’rifiy vosita sifatida qadrlagan. “1913 yilda Uzeir Gajibekovga xat bilan murojaat qilib, undan O‘zbekistonda, ko‘p sonli ozarbayjonlar istiqomat qiladigan Samarqandda shu millat musiqasini ommalashtirishga yordam berishni so‘ragan. Bungacha u Bokuga, M.Sobirnikiga borganida U.Gajibekov bilan bir necha bor uchrashgan. Gajibekov uning iltimosini bajarib, Samarqandga bir guruh musiqachilarni jo‘natgan. Ularning yordamida Said Rizo Alizoda Samarqandda U.Gajibekovning “Unisi bo‘lmasa, bunisi”, “Arshin mol olon” musiqali komediylarini va boshqa asarlarni sahnalashtirgan. Keyinchalik tojik tilida J.Molerning “Zo‘raki tabib” asarini sahnaga olib chiqqan” [4]. U musiqani shunchaki madaniyat elementi emas, balki milliy o‘zlikni anglash, estetik tarbiya va ma’naviy uyg‘onish vositasi sifatida tushungan. Bu nuqtai nazar Alizodaning jamiyatni har tomonlama yetuklashtirishga bo‘lgan yondashuvida muhim o‘rin egallaydi.

Shuningdek, Alizoda Sharq musiqiy an'analarining falsafiy ildizlarini ham qadrlagan, uni faqat eshitiladigan ohang emas, balki ruhiy-axloqiy holat sifatida talqin qilgan. Bu jihatlar uni estetik tafakkurga ega, musiqiy madaniyatni teran anglagan mutafakkir sifatida ko‘rsatadi.

Said Rizo Alizoda o‘z publitsistik faoliyatida vatanparvarlik g‘oyasini faqat tuyg‘u darajasida emas, balki ijtimoiy ongni uyg‘otuvchi, milliy o‘zlikni shakllantiruvchi g‘oyaviy kuch sifatida targ‘ib qilgan. Uning “Turkiston – bizning Vatanimiz” nomli maqolasida ifodalangan fikrlar bunga yaqqol dalildir. Alizoda ushbu maqolada o‘zining ona yurtga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbatini chuqur his-tuyg‘u va g‘oyaviy qat’iyat bilan bayon etadi. U quyidagi chaqiriq orqali o‘quvchilar qalbida vatan dardiga befarq qolmaslik, zulm va istibdodga qarshi kurash g‘oyalarini uyg‘otishga intiladi: “Bizning Vatanimiz – taqdiri zulmkor chor hukumati qo‘lida bo‘lganida, Vatanimiz nomusi o‘zgalarining qonli changalida azob tortganida biz qanday jim turamiz?!” [5;5]

Bu chaqiriq Alizodaning publitsistik tilida faqat siyosiy bayon emas, balki ruhiy uyg‘onish, milliy o‘zlikni anglash va fidoyilik ruhida tarbiya berish usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, “Sho‘lai inqilob” jurnalining 1919 yil 4-sonida chop etilgan maqolasida ham Alizoda Vatan tinchligi, baxti va istiqboli uchun kurashish zarurligini muqaddas burch sifatida talqin qiladi. U Vatan bag‘rida yashab, uning ne’matlaridan bahramand bo‘lish, ammo unga sodiq va g‘ururli farzand bo‘lomaslikni insoniy va axloqiy nuqson sifatida qoralaydi:

“Shu yerning ob-havosidan bahramand bo‘lib kamol topsang-u, uning sharafini himoya qiluvchi nomusli va sodiq farzand bo‘lolmasang...”[5;5]

Bu fikrlar Alizodaning Vatan haqidagi qarashlari shunchaki ritorik emas, balki axloqiy-falsafiy mezon, insoniy pozitsiya va milliy majburiyat darajasida shakllanganini ko‘rsatadi.

Said Rizo Alizoda ana shunday yuksak va hur fikrlari orqali o‘quvchilar ongida milliy iftixor, erkinlik ruhi va Vatanga muhabbatni uyg‘otgan. Uning chaqiriqlari ma’naviy uyg‘onishga undovchi kuchli g‘oyaviy manba bo‘lib, o‘z zamonida milliy uyg‘onish harakatiga turtki bergen, bugun esa milliy ongni mustahkamlovchi bebaho meros sifatida qadrlanadi.

Xulosa va takliflar

Said Rizo Alizoda millat istiqbolini faqat tashqi siyosiy omillar, ya’ni mustaqillik, erkinlik va ozodlik bilan bog‘lash bilan kifoyalanmagan; u bu tushunchalarning mohiyatini chuqur falsafiy nuqtai nazardan anglab, ularni ichki ma’naviy yangilanish bilan uzviy bog‘liq holda talqin etgan. Uning tafakkurida haqiqiy ozodlik — bu avvalo tafakkur ozodligi, ongning uyg‘onishi va insonning o‘zligini anglash jarayoni edi.

Alizoda millat taraqqiyotini g‘oyaviy jihatdan "taqdir emas, tanlov" deb bilgan — ya’ni xalqning kelajagi tashqi kuchlar emas, ichki intilish, bilim, tafakkur va ma’naviy uyg‘onish orqali belgilanishi kerak. U jamiyatning rivojlanishini deterministik (oldindan belgilangan) emas, balki inson ongingin o‘zgaruvchanligi va shakllanishiga asoslangan irodaviy jarayon sifatida ko‘rgan.

Boshqa davlatlarning ta’lim tizimini o‘rganib, ularni falsafiy tajriba maydoni sifatida tahlil qilgan Alizoda uchun ta’lim — bu shunchaki bilim berish vositasi emas, balki insonni inson qiluvchi, uni tarixiy subyektga aylantiruvchi g‘oyaviy kuch edi. U ta’limni jamiyatning o‘zini

anglash vositasi sifatida ko‘rgan: bu anglash milliy o‘zlikni shakllantirish, ijtimoiy ongni uyg‘otish va o‘z taraqqiyot yo‘lini mustaqil tanlash imkonini beradi.

Shu bois Said Rizo Alizodaning qarashlarida mustaqillik — bu siyosiy maqom emas, balki ong holati, erkinlik esa tashqi qobiq emas, balki ichki mazmundir. U millat taraqqiyotini nafaqat siyosiy strukturaviy o‘zgarishlar orqali, balki ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy salohiyatning uyg‘onishi orqaligina to‘laqonli amalga oshishini ta’kidlagan. Bu esa uni o‘z davrining nafaqat ma’rifatparvari, balki chuqur falsafiy dunyoqarashga ega g‘oyaviy mutafakkiri sifatida namoyon qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/1063>
2. ПАВЛЕНКО А. Сайд Ризо Ализаде - универсальный гений //
3. Мухаммадиев И.И. “Сайд Ризо Ализода асарларида маърифий дискурс” // Educational research in universal sciences. - vol. 2, no. 1, - February 2023. - pp. 273–278,
4. Сайд Ризо Ализода – самарқандлик озар донишманди // <https://aza.uz/uz/posts/said-rizo-alizoda-samar-andlik-ozar-donishmandi-22-05-2020>
5. MA`RIFATPARVAR OLIM, JURNALIST, TARJIMON (Saidrizo Alizoda tavalludining 135 yilligiga bag`ishlangan bibliografik qo`llanma). - Samarqand – 2022. –B.5.
6. Alizoda Farxod. Said Rizo Alizoda(tarxiy-bibliografik ocherk).T.”Abu Matbuot-Konsalt” nashriyoti. 2011. –B. 7.
7. Самаркандский просветитель. Московский Журнал (февраль 2002). Дата обращения: 17 августа 2017. Архивировано 17 августа 2017 года.
8. Хаккулов Н. К. Самарканд земля просветителей джадидов. – 2022.
9. Qahramonovich H. N. Worthy descendants of the Samarkandians: enlighteners jadids //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 13. – С. 37-40.
10. Qahramonovich H. N. Zamonaviy Markaziy Osiyo Falsafasinini Ikki Dahosi //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 6-9.